

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti korrupsiyaviy xolatlar va ularni bartaraf etish borasida joriy yilning 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
M A ‘ L U M O T

Joriy yilning 6 oyi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagи «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6257-son Farmoniga muvofiq hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini samarali tashkil etish maqsadida universitet korrupsiyaga qarshi kurashish “kompleans nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

2021 yil davomida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan OTV ning 28.06.2021 yildagi 281-sonli buyrugi ijrosini ta’minlash borasida reja asosida tegishli tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, bo‘limning chora-tadbirlar rejasiga asosan universitet xodimlari, professor-o‘qituvchilari hamda talabalari orasida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha oliy ta’lim muassasasida “Korrupsianing oldini olish va unga qarshi kurashish” mavzusida 17 ta profilaktik tadbir, 30 ta davra-suhbati, 7 ta seminar, 19 ta ma’rifiy tadbirlar, 2 ta tanlov tashkil etilib, mazkur profilaktik tadbirlar va davra suhbatlariga 200 nafar professor-o‘qituvchi, 22 nafar tyuter, 2500 nafar talaba-yoshlar qamrab olingan. Universitet tassarufidagi akademik litseyda ham korrupsiyaga qarshi kurashish “kompleans nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan doimiy Korrupsianing oldini olish va unga qarshi kurashish” mavzusida davra suhbatlari olib borilmoqda.

Xususan, mazkur tadbirlarda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021 yil 16 sentabrdagi “Jinoyatga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi 19/10-21-101-son taqdimnomasida ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlarning mazmun va moxiyatiga alohida e’tibor qaratildi hamda 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Aksilkorrupsiya haftaligi doirasida davra suhbatlari va korrupsiyaga qarshi rasmlar tanlovi universitetda esa insholar tanlovi o‘tkazildi.

Talabalarni turar joylarga joylashtirish bo‘yicha arizalar komissiya a’zolari, ya’ni universitet ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha prorektori, fakultetlarining Yoshlar bilan ishslash bo‘yicha dekan muovinlari, universitet yoshlar ittifoqi yetakchisi, korrupsiyaga qarshi kurashish “kompleans nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i boshchiligida kommissiya tuzilib 2021/2022 o‘quv yilida o‘qishga kirgan talabalarni yotoqxonaga joylashtirish xususida tayyorlangan xisobotlar jamlanib, tahliliy ma’lumotlar tayyorlandi va jamlangan materiallar asosida talabalarni yotoqxonaga joylash buyicha komissiya o‘z xuloslarin berdi va belgilangan me’zonlar sosida yotoqxonaga muhtoj deb topilgan 620 nafar talab yotoqxona bilan ta’minlandi hamda mazkur jarayonlarni shaffofligiga shubha bilan qarshlarni bartaraf etish maqsadida talabgor talabalarni ota-onalaridan jamotchilik

nazoratchisi sifatida komissiya jarayonida ishtiroklari ta'minlandi va barcha jarayonlar videokuztuv orqali yozib borildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 30.09.2021 yil 412-sonli «Oliy ta'lif tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi buyrug'i asosida oliy o'quv yurtiga tyutorlik lavozimiga ishga qabul qilishni ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshirish hamda mazkur jarayonlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida hujjat topshirgan har bir talabgor bilan tuzilgan ishchi guruhi tomonidan suhbatlar amalga oshirildi. Mazkur utkazilgan suhbatlar natijasiga ko'ra, 70 nafar tyutorlik lavozimiga ishga kirishga talabgor bo'lgan fuqarolar orasidan 22 nafari tanlab olindi. Tanlab olingan nomzodlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilib, ularga bo'limning vazifalari va funksiyalari hamda huquqlari va javobgarligi to'g'risida tegishli tushunchalar berildi xamda ularning xizmat vazifalarini bajarish davrida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan korruption holatlarni aniqlash va o'z vaqtida xabar berish ko'rsatmalari ta'kidlab o'tildi. Bundan tashqari barcha professor-o'qituvchilar bilan tuzilgan mehnat shartnoimasiga korruption holatlarga yo'l qo'ymaslik va ushbu holatlar kuzatilganda qonunchilikda belgilangan tartibda chora ko'rishi bo'yicha band qo'shildi va ularni har biri bilan mehnat shartnomasi tuzilayotgnada barcha bandlar tushintirib o'tildi.

Shu bilan birgalikda, bo'limning chora-tadbirlar rejasiga asosan institutning "Tarjima nazariyasi va amaliyoti, O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti (kunduzgi, kechki, sirtqi) talabalari filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili fakulte va Amaliy filologiya fakulteti fakultet talabalari o'rtasida anonim so'rovnomalari o'tkazilib, natijasi bo'yicha universitet rektoriga axborot berildi. Professor-o'qituvchilar o'rtasida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazilmoqda. Universitetda barcha talabalar va professor o'qituvchi va xodimlarning murojaatlarini qabul qilish bo'yicha [@Yoshlar_masalalari_bot](#) va [@toshdotau_no_korrupsiya_bot](#) kanallari tashkil etildi.

2021 yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasiga asosan institutda amalga oshirilayotgan xaridlar, o'tkazilayotgan tenderlarni kuzatish hamda kontragentlarni muntazam tekshirib borish ishlari nazorat olinib, mazkur yo'nalish bo'yicha tegishli UzASBO dasturi orqali bajariladigan barcha amaliyotlarni doimiy kuzatib borish imkoniyati yaratildi.

Talabalar, professor-o'qituvchi va xodimlar bilan muloqotlar, davra suhbatlari va so'rovnomada bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida ko'proq e'tiborni oliy ta'lif o'quv yurtiga magistraturaga qabul qilishni soddalashtirish, talabalarning o'qishini ko'chirish, o'qishini tiklash jarayonlarni yagona bir tizimda buyurakratik to'siqlarni bartaraf etgan holda barcha tekshiruvlarni elektronlashgan tizmda joriy etish hamda universitetda pedagog xodimlarni ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash jarayonlarini nazorat olish lozim buladi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaiens nazorat"
tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i**

A.Nasriddinov

